

O‘ZBEK MILLIY MUSIQASIDA TALABA YOSHLARDA IJODKORLIK TAFAKKURINI O‘STIRISH

J.A. Botirov

Andijon davlat universiteti “San’atshunoslik”
fakulteti o‘ “Musiqiy ta’limi”
kafedrası qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqa fanini insoniyatga foydali tomonlari milliy qadriyatlarimiz urf odatlarimiz xaqida èzilgan. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiètlari dunèsi kishi ruhini ko‘taradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xaèllarning tushuntirib bo‘lmas imkoniyatlarini ochadi, dunèning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, haètimizni ma’noli, mazmunli, ma’naviy boy va go‘zal qiladi.

Kalit so‘zlar: musiqa san’ati, cholg‘u asbobi, inson ruxiyati, tovushlar, obrazlar, ta’lim tarbiya.

ABSTRACT

In this article, the useful aspects of the science of music for mankind are written about our national values and traditions. This world of musical sounds, images, thoughts and feelings elevates the human spirit, unites it with existence, sometimes opens up the inexplicable possibilities of imagination and imagination, takes us to the infinite expanses of the world, brings us closer to the truth and ideal, makes our life meaningful, meaningful, spiritually rich and beautiful.

Key words: musical art, musical instrument, human spirit, sounds, images, education.

АННОТАЦИЯ

Этой статье написани полезные аспекты музыкальной науки для человечества наших национальных сенностях традициях. Этот мир музыкальных звуков, образов, мислей чувств возвишает человеческий дух, соединяет його битийем, откривает порой необьяснимие возможности воображения воображения, уносит нас бескрайние просторы мира, приближает истине идеалу, делает нашу жизн осмысленной, осмысленной, духовно богатой красивой.

Ключевые слова: музыкальное искусство, музыкальный инструмент, человеческий дух, звуки, образы, образование.

O‘zbekiston o‘ziga hos taraqqiyot yo‘lida borayotgan bir davrda o‘tgan ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosni tiklash va rivojlantirish asosida, yoshlar madaniyatini va ma’naviyatini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

SHunday ekan avlodlarimizga ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan, asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan o‘ziga hos mumtoz musiqamiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz hayoti va ijodi bilan talabalarni tanishtirish har bir musiqa o‘qituvchisi oldida turgan asosiy vazifadir. O‘zbek musiqa san’ati qadimiy va rang – barang an’analarini o‘zida mujassam etgan ma’naviy merosdir. Qo‘shiq, kuy, musiqa insoniyat tomonidan o‘ylab topilgan avloddan – avlodga o‘tib keladigan eng qadimiy san’at turidir. Musiqa fanidan dars beruvchi pedagoglarning hozirgi kundagi asosiy vazifasi haqida fikr yuritish ekanmiz, ... agar insonning qulog‘i yengil – yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora – bora uning badiiy didi musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Ohir oqibatda bunday odam “SHashmaqom” singari, milliy merosimizning noyob durdonalarini ham Motsart, Betxoven, Bax va CHaykovskiy kabi dunyo tan olgan kompozitorlarning asarlarini qabul qilishi qiyin bo‘ladi...” musiqiy ta’limni rivojlantirish masalalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.¹ Zero inson kamolotida har bir davr muhim ahamiyat kasb etgani holda, oliy o‘quv yurtida o‘qish davri talabalarining ma’lum kasbga yuksak tayyorgarlik darajasida yo‘naltirish lozim. CHunki bo‘ljak o‘qituvchilar o‘z navbatida, yosh avlodni kamolga yetkazishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. O‘zbek milliy musiqa merosimizda o‘zbek xalqiga mos bo‘lgan milliy an’analar laparlar, xonishlar, aytishuvlar, katta ashula, mavrigiylar, mumtoz kuy va qo‘shiqlar, maqomlar, suvoralar, dostonlar, o‘ziga hos mahalliy uslublarda o‘z aksini topgan. SHu nuqtai nazardan Respublikamizning barcha oliygohlarida kollejlarda va maktablarda jahon va qardosh mumtoz musiqa madaniyati bilan bir qatorda o‘zbek musiqa merosi ham o‘rgatib kelinmoqda. Har bir xalqning uning his – tuyg‘ularini, dunyoqarashi, dardini ifodalab berishdek kuchga ega. Qaysi bir xalq bo‘lmasin o‘zining qadimiy milliy merosi bilan boshqa xalq milliy musiqasidan farq qiladi. SHunday ekan biz talabalarga, qaysi xalq kuy qo‘shiqlarini o‘rgatmoqchi bo‘lsak, uning tarixi, madaniyati, san’ati haqida batafsil ma’lumot berish kerak.

Ma’lumki musiqiy ijrochilik pedagogikasi sohasiga bir qator o‘ziga hos bo‘lgan talabalar qo‘yilgan. Pedagog bo‘lg‘usi sozandani tarbiyalar ekan, unda o‘rgatiladigan cholg‘uga nisbatan mehr uyg‘ota olishi kerak. Buning uchun pedagogik repertuar tarkibiga doimiy ravishda cholg‘uda yaxshi jaranglaydigan asarlarni har bir xalqni milliy musiqa merosini yorqin ifodalaydigan asarlarni tanlash lozim. Talabalar qaysi cholg‘u sozida saboq olishidan qat’iy nazar, milliy musiqamiz tarixini, milliy

qadriyatlarini, kompozitor yoki bastakorlarni hayoti va ijodini o'rganishlari so'ngra asarni ijro etishga kirishishlari mumkin. Sozandaning ijro texnikasi qanchalik yuqori bo'lmasin, agar u asarning tarixi, badiiy hususiyatlarini ochib berolmasa, atrofdagilarda va tinglovchilarda yaxshi taassurot qoldira olmaydi. Asar ustida ishlaganda har bir shtrixni yaxshi o'zlashtirishga va yaxshi tovush hosil qilishga e'tibor berishlari kerak. Tanlangan milliy mumtozmusiqasi ustida ish olib borish jarayonida, avvalo asarni o'qituvchi ijrosida yoki SD-Rdiskida eshittib talaba bilan birgalikda tahlil qilishi va talabaga asar mazmunini o'rgatish yuzasidan vazifalar berishi kerak. CHalish jarayonida esa sozni to'g'ri ushlab, sozlardan hosil bo'lgan tovushni to'g'ri yo'naltira bilish, chalish jarayonida barmoqlarni joylashuvi o'ng qo'l, chap qo'l harakatlari hamda applikaturadan to'g'ri foydalanishni o'rgatish kerak. O'qituvchi talaba bilan shug'ullanar ekan har bir mashg'ulotda musiqani his qilish, sezish kabi nozik tuyg'ularni shakllantira borish zarur. Ijodkor o'qituvchi o'z sohasi bo'yicha yangicha pedagogik texnologiyalardan ham samarali foydalanishi kerak, mashg'ulotlarni noan'anaviy shaklda tashkil etish, sozda ijro o'rganish samaradorligini oshiradi. Interfaol metodlardan foydalanish, o'yinga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, o'rganiladigan asarni tez va oz kuch sarflab o'zlashtirishga yordam beradi. Interfaol metodlarda berilgan vazifa va topshiriqlar, talabalarni o'zlari muammoni yechimini mustaqil topishga o'rgatadi. O'zbek milliy musiqamizni o'rganish jarayonida talaba yoshlarni ijodkorlik tafakkuri, obrazli tasavvur qilish, o'z qobiliyatini to'la namoyon qilish, mulohaza va suhbat doirasini kengaytirib, chuqurroq ma'lumotga ega bo'lish, o'qituvchi va guruhlar o'rtasida hamkorlik qaror topishi kabi jarayonlar mustaxkamlanadi. Talaba – yoshlarda ijodkorlik tafakkurini o'stirishda , o'qituvchi pedagogik mahoratga ega, izlanuvchan, ijodkor guruhda ijodiy izlanuvchanlik faoliyatini takomillashtirish va talabalarda fanga qiziquvchanlik, intiluvchanlik tuyg'ularini shakllantira oladigan bo'lishi kerak.

Bunday malakalarni o'zlashtirish juda murakkab bo'lib muayyan vaqtni talab etadi. SHunga qaramay o'yin metodlarini qo'llash natijasida talabalar musiqaning nazariy va amaliy sohasini puxta o'zlashtirib boradi, egallagan ijroviy malaka va mahorati yanada o'sadi, ichki his – tuyg'ulari bilan musiqani idrok etishga o'rganadilar, dars samaradorligi ko'tariladi.

Xulosa qilib aytganda talabalar, to'rt yillik o'qish davrida sozlarda mukammal mumtoz asarlarni ijro etish bilan birga o'zbek milliy musiqamizni tarixi, milliy qadriyatlarni e'zozlash va qadrlashga o'rganadilar. Mumtoz kuy va qo'shiqlarimiz talabalarimizni madaniyati va ma'naviyatini shakllantiradi. Har qanday jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlat barpo etish, ularni qanday tarbiya olishiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. **Apraksina O.** Metodika muzikalnogo vospitaniya shkole Moskva , 2003.
2. **Apraksina.O.A.** Metodika muzikalnogo vospitaniya shkole. (Uchebnoe posobie dlya ped. institutov po spes. 2119 «Музыкальное воспитание») –
3. **Zimina A.N.** Основы музыкального воспитания развития. М. 2000y.
4. Metodika prepodavaniya muzikalnix disqiplin: Sb. statey. -T.: O‘qituvchi.
5. Muzikalnaya psixologiya: Uchebnoe posobie. / avtor sost. Kadirov R.G., T.: Muzika, 2005.
6. Muzikalnoe vospitanie shkole. Вып.19.: Sb. statey. / Sostav. O.Apraksina. М.: Музыка,
7. **Soipova D.** Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi O‘quv metodik qo‘llanma 2009 UzDK
8. **Sharipova G.** Musiqa o‘qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni. 2000 y.